

# **Course: History of the Eastern and Western philosophy**

**Lecture 9:** The Ideas of Irrationality in the  
German Classical Philosophical Thought of late

**Lecturer: Dr. Gulnoz Ruzmatova**

## **XVIII ASR OXIRI VA XIX ASR BOSHI NEMIS KLASSIK FALSAFASIDA IRRATSIONAL G‘OYALAR**

Immanuil Kantning ratsional sistemasi.

Iogan Fixte ta’limotida ratsionallik va irratsionallik dialektikasi.

Iosif Shellingning mifologiya haqidagi ta’limoti.

Vilgelm Gegelning ratsional-idealistik metodologiyasi.

Lyudvig Feyerbax tomonidan mistik qarashlarning tanqid qilinishi.

### **Tayanch so‘z va iboralar:**

Transdental falsafa, aprior, aposterior, antinomiya, kategorik imperativ, progress, regress, tezis, antitezis, sintez, ruh fenomenologiyasi, mutlaq ruh, biologik antropologiya.

*Darsning maqsadi: XVIII-XIX asr nemis mumtoz falsafasi bo‘yicha atroflicha va chuqur bilimga ega bo‘lish; XVIII-XIX asr nemis mumtoz falsafasi bilan boshqa ta’limotlarni qiyosiy tahlil qilish; XVIII-XIX asr nemis mumtoz falsafasi bo‘yicha talabalarning bilimni kengaytirish; falsafiy manbani tahlil qilish ko‘nikmalarini Shakllantirish.*

**Immaniul Kant 1724 yil** Sharqiy Prussiyaning Keninsberg Shahrida, hunarmand oilasida tug‘ilgan. Shu Shaharda gimnaziya, universitetda o‘qiydi. Otasi pastor bo‘lishini xohlaydi. 1745 yilda universitetning ilohiy fakultetini tugatadi. Falsafaga qiziqadi, ruhoniy bo‘lishni istamaydi. 9 yil davomida uy o‘qituvchisi bo‘ladi. 2 ta dissertatsiyani muvaffaqiyatli Yoqlaydi. 1755 yilda Keningsbergda privat-dotsent lavozimida ishlaydi. Metafizika, mantiq, axloq falsafasi, matematika, fizika, fizik geografiyadan dars beradi. U qomusiy tafakkur egasi bo‘ladi. 1770 yilda dissertatsiya Yoqlaydi va professor bo‘ladi. Yangi falsafaga tamal toshi qo‘yiladi – bu tanqidiy daqr falsafasi edi. Bu falsafa trilogiyadan iborat: “Sof aql tanqidi” (1781); “Amaliy aql tanqidi” (1788); “Muhokama qobiliyati tanqidi” (1790). Gnoseologik ahamiyatga ega falsafasi “transsendental idealizm” nemis klassik falsafasining asosi hisoblanadi. 1786-1790

yillarda dekan va rektor lavozimida ishlaydi. 1797 yil o'qituvchilik faoliyatini tugatib iste'foga chiqadi. Uning falsafasi, hayotiga o'xshab taqsimlangan, bir xil tarzda o'tdi.

Kantning tanqidiy davrgacha bo'lgan falsafasi. Kantning 70 yilgacha bo'lgan davri Shartli ravishda "tanqidiy davrgacha bo'lgan falsafa" deb ataladi. Birinchi asari "Harakatchan kuchlarning haqiqiy bahosi haqida fikrlar" (1746) – Leybnits, Vol'f, Germanni tanqid qiladi. Kant Nyuton fizikasini qabul qiladi; uni tabiiy-ilmiy bilimning asosi deb biladi.

Fizik monadologiyasi va kosmologik gipotezasi. Kant Leybnitsning ruhiy monadologiyasiga qarshi chiqadi. Monado – bu ruhiy atom emas, balki makondagi fizik tanadir, ya'ni moddiy atomdir – unga kuch-quvvat xosdir, bu tortishish va itarish kuchidir. "Eng umumiy tabiiy tarix va osmon nazariyasi" (1755) – bu asar Kant tabiat falsafasining eng yuksak cho'qqisidir. Galileydan to Nyutongacha koinotning harakatini tabiiy ravishda hech kim tushuntirmagan. Kant buni ilmiy isbotlab berdi. Kantgacha hech kim harakat materiyaning mohiyatiy, atributiv xususiyatini ochmagan, buni ilohiyatga taqashgan. Kant o'zining kosmologik ta'limotida olamni bilish mumkinligiga ishongan. 1763 yil Kant biologik muammolarni o'rganib, uni xudo tomonidan yaratilganligini inkor qiladi. Kant tabiiy-ilmiy determinizm pozitsiyasida turadi. Kant fikricha, Lukretsiy, Epikur, Demokrit va Levkipp nazariyasi unikiga o'xshab ketadi.

Gnoserologik-metodologik qarashlari. Kant metafizikasi – bilishimizning birinchi asoslari haqidagi falsafadir. Kantning davrigacha bo'lgan metafizika uni qoniqtirmaydi. Ikki Yangilikni kiritadi: *ketma-ketlik prinsipini*; *birga mavjudlik prinsipini*. "Falsafaga aks ta'sir etuvchi kattalik tushunchalarini kiritish tajribasi" (1763) asar Yozdi. Narsalarning real mavjudligi, ularning mantiqiy asoslaridan boshqacharoq. "Metafizik hayollarini ilohiyotchi hayollari orqali aniqlash" (1766) asarida Svedenborg mistikasini tanqid qiladi. Spekulyativ metafizika bilan insonning ruhiy hayotini bilib bo'lmaydi; makonni tahlil qilishdan boshlanadi.

"Tanqidiy" falsafa sistemasi. Kantning dissertatsiyasi "Hissiy qabul qilinuvchi va aqliy muShohada qilinuvchi dunyoning Shakllari va prinsiplari

haqida” deb nomlanadi (1770). Kant sistemasida “tanqid” iborasi ko‘p ma’noga ega. Dogmatizmga qarshi kurash, bu sof aqlning dogmatik uslubiga qarama-qarshi bu uslub Dekartdan to Leybnitsgacha bo‘lgan. Kantning dogmatik uslubga qarshi qo‘ygan Yangi talablari: prinsiplarni qonuniy Shakllanishi, tushunchalarni aniq aniqlash, qat’iy isbot orqali xulosalash. Hal qilinishi kerak bo‘lgan metafizik muammolar: xudo borligi, iroda erkinligi, ruh abadiyligi, dunyoni yaxlit, yakka tushunish.

Tabiiy-ilmiy fan xulosalari – metafizika uslublari bo‘lishi mumkin. Tabiiy-ilmiy haqiqatlar tafakkur Yordamida muShohada orqali ishlab chiqiladi. Kant gnoseologiyasiga tafakkur bilan birgalikda hissiyotni ham qo‘shdi, bu unga katta imkoniyatlarni berdi. Kant “Sof aqlning tanqidi”da 3 ta savolni qo‘yadi: 1) sof matematika qanday mumkin? 2) sof tabiiy bilim qanday mumkin? 3) sof metafizika fan sifatida qanday mumkin?

Apriorlik. Ilmiy haqiqat aprior asosga ega. Apriorlik nafaqat aqlga, balki hissiyotga ham taalluqli. Apriorlik tushuntirib bo‘lmaydigan berilganlikdir. Aprior bilimlarning mohiyati – zaruriylik va qat’iyan umumiylikdir. Matematika va nazariy tabiiy bilimlarning asosi aprioridir. Aprior bilimlar tajribagacha bo‘lgan bilimlardir. Aprior bilimlarga empirik bilimlar qarma-qarshi turadi. Mutlaq haqiqat Nyuton fizikasida, tabiiy bilimda, Evklid matematikasida, geometriyasida mavjud. Kant hamma nazariy fanlar aqlga tayangan, prinsip sifatida aprior sun’iy, sintetik mulohazalarga tayanadi. Sintetik bilimlar predikatni sub’ekt bilan aloqasidir, aynansizlikdir. Analitik bilimlar – tushuntiradi. Sintetik bilimlar esa – kengaytiradi. Transsendental bilim – bu predmetlar bilan emas, balki bizning bilimimizning turlari bilan Shug‘ullanadi.

“Sof aql tanqidi” – bu transsendental tanqiddir. Transsendentallik (ongga bog‘liq bilish mumkin) transsendenlikka (ongdan tashqarida uni bilib bo‘lmaydi) qarama-qarshi turadi. Kantning “Sof aqlning tanqidi” asari 2 bo‘limdan iborat: transsendental estetika (hissiyot haqida ta’limot) hamda transsendental mantiq (intellekt haqidagi ta’limot). Intellekt – muShohada Shaklida “transsendental analitika”. Tafakkur Shaklida – “transsendental dialektika”. Kant bilishning hissiy

va aqliy darajalarini ochib berishga o'z diqqatini qaratadi. Bilimning aprior va aposterior elementlarini tahlil qiladi.

Hissiyot haqidagi ta'limot. Kant "transsendental estetika" –hissiyotning hamma aprior tamoyillaridir. Hissiy tasavvur ta'sir natijasida uyg'onadi. Hissiyot – qabul qilish qobiliyatidir, u narsaning bizga ta'siridan keyin uyg'onadi. Hissiyot orqali predmetlar bizga beriladi, ya'ni ular bizning ruhiyatimizga ta'sir etadi. Predmetlar muShohada orqali fikrlanadi.

Predmetlarning *hissiy obrazlari* – bu "*hodisalardir*" – xuddi Shular ilmiy bilishning predmetini hosil qiladi. Predmetlarning mohiyatini bilib bo'lmaydi, ular "narsa o'zida"dir. Kant mohiyat bilan hodisani bir-biridan ajratadi.

Makon va zamon. Kant makon – tashqi muShohadaning asosida Yotuvchi zaruriy aprior tasavvurdir. Zamon – hamma muShohadaning asosida Yotuvchi zaruriy aprior tasavvurdir. Kant makon tashqi hissiyo xodisalarning Shaklidir, zamon – ichki hodisalarning bevosita Shartidir. Makon va zamon sub'ektiv muShohadasiz hech qanday mazmunga ega emas. Makon va zamon "narsa o'zida emas". Hissiyotdan tashqarida har xil o'zgarishlarni sezish mumkin emas.

Hamma haissiy qabul qilinuvchi moddiy tanalarning inson ongida manbasi bor. Narsalar hodisa sifatida (va faqat hodisa sifatida) hissiy muShohada predmeti sifatida zaruriy ravishda makon va zamonda mavjud. Kant ob'ektivlikni sub'ektiv talqin qiladi. Kant fikricha, matematikada – geometriya makoniy tasavvurga ega, arifmetika zamoniyy tasavvurga ega.

MuShohada qilish to'g'risidagi ta'limot. MuShohada qilish: *tushunchaga va asoslashga* bo'linadi. Asoslash tushunchalarni hukmga aylanish qoidasi. Tushunchalar analitikasi – muShohada qobiliyatini qismlarga ajratishni tushunadi. Kant tafakkur tushuncha orqali bilishdir. Har qanday insoniy muShohadani bilish tushuncha orqali sodir bo'ladi, intuitsiya orqali emas. Diskurs orqali Kant tushunchani hukm bilan birgalikda tahlil qiladi. MuShohada – bu hukm chiqarish qobiliyatidir. Sof muShohadaviy tushunchalar – bu kategoriyalardir.

Makon va zamoni sub'ektiv talqin qilgandan so'ng Kant aloqani ham sub'ektiv talqin qiladi. Aloqani sintez deb oladi – bu faqat muShohada orqali amalga oshiriladi. O'z-o'zini anglashning transsendental biriligi bu aprior berilganlikdir. MuShohada berilgan ko'p turlik ob'ekt haqida tushunchaga aylanadi. Bunda idealistik Shaklda analiz va sintezning dialektik birligi berilgan. Appersepsiya – bu muShohada Shaklidir.

Asoslash analitikasi. Kant ongda aprior Shakllar bor, deydi. Transsendental zamoni aniqlovchi kategoriya bilan bir xildir. Kategoriyalarni hodisalarga nisbatan qo'llash mumkin, chunki ular zamoni bir turga egadir. Ongning yana bir qobiliyati – bu tasavvurdir (mahsuldor tasavvur). Kategoriyalar hissiyot sxemalari orqali amalga oShadi.

Tafakkur haqidagi ta'limot – metafizik fan sifatida (transsendental dialektika). Tafakkur bilish qobiliyatining eng yuksak bosqichidir. Bilish Yo'li: hissiyot – idrok – tafakkur. Tafakkur idrok bilan chambarchas bog'liq. Tafakkur tushunchalari – bu transsendental g'oyalardir. Demak, tafakkur faqat idrokka Yo'naltirilgan. Kant g'oyalarni 3 sinfga bo'ladi: fikrlovchi sub'ekt; hodisalar; tafakkur.

Psixologiyaning predmeti – bu fikrlovchi sub'ekt. Kosmologiyaning predmeti – bu hodisalar yig'indisi. Teologiyaning predmeti – bu mohiyatlar mohiyati.

“Ratsional psixologiya” tanqidi. Biz o'z menimizni faqat hodisalar orqali anglashimiz mumkin.

“Ratsional kosmologiya” tanqidi. Antinomiylar. Tetika – dogmatik ta'limotlar yig'indisi. Antinomiylar – bir-birga qarma-qarshi bo'lgan yaxshi dalillangan bilimlar. Antinomiylarni o'rganuvchi ta'limot – transsendental antitetika deyiladi.

4 ta antinomiylar:

**Matematik antinomiylar:**

1-antinomiya

Dunyo vaqt va makonda cheklangan. - Dunyo vaqt va makonda cheklanmagan

Vaqtda abadiy, makonda cheksiz.

### 2-antinomiya

Har qanday substansiya dunyoda - Dunyodagi hech narsa sodda qismlardan

sodda qismlardan tuzilgan, iborat emas, umuman sodda narsalarning

faqat sodda narsalar Yoki o'zi Yo'q.

soddadan tuzilgan narsalar mavjud.

### **Dinamik antinomiylar:**

### 3-antinomiya

Tabiat qonunlari sababiyati dunyo - Hech qanday erkinlik Yo'q.  
Dunyoda

hodisalarini tushuntiruvchi yagona hamma narsa tabiat qonuniga sababiyat emas, yana hodisalarni bo'ysunadi.

Tushuntirish uchun erkin sababiyatni olish zarur.

### 4-antinomiya

Dunyoga Yo qism sifatida Yo sabab - Hech qanday hech qayerda zaruriy

sifatida zaruriy mohiyat xos. mohiyat Yo'q, dunyoda ham, dunyodan

tashqarida uni sababi sifatida

ham.

Ratsional teologiya tanqidi. Kant fikriga ko'ra, dastlab xudo g'oyasi amalga oShadi, ob'ektga aylanadi; keyin ko'plikka aylanadi, va nihoyat, tafakkur harakati natijasida Shaxsiylashadi. Bular sof tafakkur idealidir. Ideal – bu aqlning adashishidir (saroblar dialektikasi salbiy ma'noga ega). Ratsional psixologiya, ratsional kosmologiya, ratsional teologiya – bular fan emas. E'tiqodga Yo'l

ochilish uchun bilimni cheklash zarur, lekin har qanday bilimni diniy e'tiqodga bog'lash kerakmasligini qat'iy himoya qilgan.

Axloqiy konsepsiyasi. Insonning hamma qilmishlari o'ziga muhabbat orqali Shartlangan. Ana Shu Shartlanganlik hissiyot orqali amalga oshadi. Kant erkin irodani Yoqlab, fatalizmni qoralaydi. Fatalizm majburiyat va burchni inkor qiladi. Erkin irodani tan olmay turib axloqiy harakat qilib bo'lmaydi. Kant o'zining axloqiy konsepsiyasini "Axloqiylik metafizikasi asoslari" nomli asarida bayon qiladi (1785); "Amaliy aql tanqidi" (1788); "Xulq metafizikasi" (1797); "Inson tabiatiga xos dastlabki Yomonlik" (1792); "“Bu nazariyada to'g'ri kelar, lekin amaliyot uchun bo'lmaydi” iborasi haqida" (1793); "Aql chegarasidagi din" (1793).

"Axloqiy qonun" va "amaliy aql". Ikki narsa qalbimni to'ldiradi – osmon to'la yulduzlar va mendagi axloqiy qonun! Diniy teologik axloqiy qoidalarini inkor qiladi. Ularni ijtimoiy-tarixiy Shakllanganligini ham tan olmaydi. "Axloqiy qonun" inson ongida mavjud bo'lgan o'zgarmas berilganlikdir. U mutlaq qadriyat xususiyatiga ega. Axloq majburiyatni inson tabiatidan emas, balki sof aqlning aprior Shaklidan izlash lozim; bu yyerda amaliy aql nazarda tutiladi. Iroda asosini amaliy aqldan topish lozim. Sof aql iroda Yo'nalishini aniqlaganda u amaliy aqlga aylanadi.

"Ezgu iroda" va burch. "Yaxshi niyat" Kant ta'limotida fundamental asosga ega. "Yaxshi niyat" axloqiylikning ustunidir. "Yaxshi niyat" = "axloqiy qonun" orqali aniqlanadi. Burch ham Shu qatordan o'rin olgan. Yaxshi niyat va burch insonni yuksaklikka ko'taradi. Ana Shular insonni hayvonot dunyosidan ajratib turuvchi kuchdir. Axloqiy qonun muqaddasdir!

Kant axloqiy ta'limotida aql irodaga qarma-qarshi qo'yilmaydi. Kant yaxshi niyatni aqlga muvofiq qilib qo'yadi. Yaxshi niyat = amaliy aql.

Axloqiy Yo'nalgan iroda hamma tirik jonzotga taalluqlidir. Yaxshi niyatni zaruriy komponenti bu avtonomlikda". Hech qanday tashqi Shart bilan bog'lanmagan". Kant irodani insonning ijtimoiy va biologik Shartlar bilan bog'langanligini inkor qiladi. Jumladan, uni xudo irodasi bilan Shartlanganligini

ham inkor qiladi. Sof axloqiy harakat, faqat va yana faqat burchni bajarish uchun qilingan harakatda ko‘rinadi. Kantni axloqiy rigorizm, pedantik qat’iylikda ayblashadi.

Kant “Axloqiylik metafizikasi asoslari” asarida axloqni dindan ajratish kerakligini qadamma-qadam asoslab borgan. Yaxshi niyat eng oliy ezgulikdir. Kant etikasiga evdemonik va utilitar ta’limotlar qarma-qarshi turadi. Yaxshi niyatni tug‘dirish maqsad bo‘lishi Shart!

Kategorik imperativ – axloqiylik qonunning Yuqori Shaklidir. Kategorik imperativ – sof aprior qonundir. Kantning kategorik imperativi formal xususiyatga ega. Bu formalizm – apriorik va antievdeemonik rigorizm orqali namoyon bo‘ladi. Insonga har doim, har qanday vaziyatda maqsad sifatida qara! Hech qachon inson vositaga aylanmasin. Kategorik imperativ hammaga tegishli; hamma uning oldida teng javob berishi Shart.

Axloqiy majburiyatlar yig‘indisi. Inson o‘z hayotini saqlash uchun qayg‘urishi Shart; salomatligi haqida o‘ylashi Shart; hurmat va muhabbat majburiyatlardir; axloq do‘stlik ikki inson o‘rtasidagi to‘liq ishonchdir; do‘stlikda inson ehtiyojlari qondiriladi. Inson maqsadi – o‘zini komillikka intilishi va boshqalarni baxti uchun Yordam berishidir. Hamma tashqi tomondan qilinadigan qarma-qarshiliklarga erkin iroda orqali kurashish kerak. Aql dunyosi – nomoddiy, hissiyotdan tashqari. Sof ruhiydir, inson erkin irodasi aql dunyosida asoslanadi.

Axloq va din. Axloq dinga muhtoj emas. Axloq dinga olib boradi, ya’ni xudoni axloqiy qonun yaratuvchisi sifatida ko‘radi; diniy e’tiqod axloqqa nisbatan ikkilamchi xarakterga ega; xudo g‘oyasi axloqni asoslaydi; axloqiy din insoniy majburiyatlarni xudo so‘zi sifatida bajarishdir; hamma tarixiy real dinlar xudoga sig‘inish sifatida mavjud bo‘lgan; Kant fikricha, din – ilohiyotlar yig‘indisi emas, majburiyatimiz yig‘indisidir; Insondagi Yovuzlik va ezgulik erkin irodaga bog‘liq; o‘z ustidan kurash olib borib Yovuzlikni engish zarur.

Faylasuflarning axloqiy burchi. Ta’limotlarning haqiqatligini tadqiqotchisi bo‘lishi kerak. Kant faylasuflarni davlat maslahatchilari bo‘lishini xohlaydi.

San'at falsafasi va estetik mulohaza qobiliyati. Ajoyiblik – bu hech qanday manfaatsiz hammaga birdek Yoqish; ajoyiblik – sof Shakli orqali Yoqadi; ajoyiblik – axloqiy ezgulik belgisidir; taabni hech qanday tushuncha bilan aniqlab bo‘lmaydi.

Organik tabiat. Organik tabiatni – faqat mexanik tamoyillar bilan ochib bo‘lmaydi; arxetip intellekt – mavjud, u narsalarning substrati mohiyatiga kira oladi.

Tarix falsafasi va ijtimoiy falsafa. Kantning ijtimoiy falsafaga bag‘ishlangan ishlari Fransuz revolyusisiga 5 yil qolganda Yozilgan. “Butunjahon fuqarolik Sharoitida eng umumiy tarix g‘oyasi” (1784); “Ma’rifatparvarlik nima – savolga javob” (1795); “Xulq metafizikasi” birinchi qism (1797).

Kant ongli ravishda “tarix metafizikasi”ni yaratishdan voz kechadi. Kant tomonidan tarix naturalistik ko‘riladi; insonning tabiiy imkoniyatlari individda emas, balki urug‘da ro‘yobga chiqadi. Uning tarix falsafasi ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega. Insonni harakatga chorlovchi kuch bu uning – mag‘rurlik, hokimiyatga intilishi, manfaatparastlik xislatlarini mavjudligidir. Bu axloqiy salbiy ehtirolarsiz – insonning ko‘pgina tabiiy imkoniyatlari rivojlanmay qolardi. Bu ehtirolar ijtimoiy Shartlanmagan.

Tarixiy taraqqiyotga qarama- qarshi va antogonizmlarga xos. Insoniyatning eng oliy maqsadi fuqaroviy huquqiy jamiyatni qurishdan iborat.

Ma’rifatparvarlik. Kant o‘z davrini “Ma’rifat asri” deb ataydi. Kant insonlarni ruhoniylarni ta’siridan ozod qilishligini vazifa qilib qo‘ygan; o‘z fikrlarini erkin ifodalash Sharoitini yaratish zarur; Kant ideali – fuqaroviy tuzilma respublika bo‘lishi kerak; Kant fikricha, aynan faylasuflar, xalq tomonidan saylangan vakillar – delegatlar emas, davlat hokimiyatini vakillari bo‘lishi kerak; respublikani umumiy zaruriy qonunlar boshqarishi kerak; respublikachilik ijro hokimiyatini, qonun chiqaruvchi hokimiyatdan ajratadi; Kant ijtimoiy idealini tinchlik vositalari orqali amalga oshirish mumkin.

“Abadiy tinchlik” haqida. Kant davlatlar o‘rtasida doimiy tinchlik Shartnoma tuzish zarur. Tinchlik butunjahon tarixiy jarayoni vazifasidir.

Kantning abadiy tinchlik haqidagi loyihasi. Tinchlik Shartnomasi bo'lajak urushlarning sababini Yo'q qiladi. Hech qaysi mustaqil davlat boshqa davlatni sotib olish, merosga berish, ayirboshlash, sovg'a qilish huquqiga ega bo'lishi kerak emas. Doimiy harbiy qo'shin asta-sekin tarqatilishi zarur. Davlat tomonidan harbiy maqsadlar uchun qarz berish ta'qiqlanishi zarur. Hech bir davlat boshqa bir davlat siyosatiga, boshqaruviga aralashishi mumkin emas. Hech qaysi davlat boshqa davlat o'rtasidagi urush davrida o'zaro ishonchni Yo'qqa chiqaradigan dushmanona harakatlarga Yo'l qo'ymasligi kerak. Masalan, orqavorotdan o'ldiruvchilarni yuborish, kapitulyasiya Shartlarini buzuvchilarni, gij-gijlovchilarni va h.k.Kant fikricha, "abadiy tinchlik" – bu eng yuksak siyosiy ezgulikdir!

Butun jahon tinchlik uchun kurashadigan davlatlar federatsiyasini tuzish zaruratini aytib ketgan. Hokimiyat insonlarga emas, qonunga tegishli bo'lishi Shart. Axloq siyosatdan ustivor bo'lishi kerak. OShkoralik – bu siyosiy harakatlarni axloqiy tomondan va adolatli amalga oshirishdir. Pragmatik-manfaatli siyosatni qoralaydi. Kant fikricha, axloq nazariya emas, balki amaliyotdir. Inson huquqlari muqaddas bo'lishi kerak, u davlat hokimiyatiga qanchalik qimmatga tushmasin. Inson bilimning eng asosiy predmetidir va o'zi uchun maqsad hamdir. Hamma falsafiy fanlarni antropologiyaga olib kelish mumkin. Kant 90-yillarda etakchi faylasuflardan biri bo'ldi.

**Iogann Gotlib Fixte** (1762-1814 yillar) – 8 ta farzandning biri, to'quvchi-hunarmand oilasida Saksoniya-Rammenau qishlog'ida tug'ilgan. Yoshligi muhtojlikda o'tadi. Bir pomeShikni unga mehri tushib, o'qish uchun pul ajaratadi. Fixte dastlab Yena universitetining ilohiyot fakultetida o'qiydi; keyin Leypsig universitetida ham o'qiydi. Falsafa, adabiyot, huquq bilan chuqur Shug'ullanadi. PomeShikni o'limidan so'ng o'qishni tugatishga mablag'i qolmaydi, hattoki yakuniy imtihonlarni topshirishga ham mablag' topa olmaydi. Pastorlik lavozimidan Fixte voz kechadi. Ko'p yil davomida uy o'qituvchisi bo'lib ishlaydi, SHveysariya, Syurix Shahrida yashaydi.

Fransuz inqilobi Fixteni to'lqinlantiradi, vataniga qaytib keladi. 1790 yilda Leybsigga qaytib inqilob idealini amalga oshirish uchun Sharoit topa olmaydi.

1791 yilda Keningsbergga keladi; Kant bilan suhbat qurishni xohlaydi. Kant dastlab Fixteni sovuq kutib oladi, keyin birinchi asarini o‘qib fikri o‘zgaradi. 1792 yilda Kant Fixtning “Har qanday vaheni tanqid qilish tajribasi” asarini nashr qilishga Yordam beradi. 1793 yilda yana ikki risola Yozadi. Fixte falsafa orqali ongni o‘zgartirishni xohlaydi; buni Kant falsafasidan topmaydi. O‘zining ta’limotini Fixte “*fan ta’limoti*” deb ataydi. 1797 yil Syurixdagi do‘stlarini tanqidiy ta’limoti bilan tanishtiradi. 1795 yilda Getening Yordamida Yena universitetiga falsafadan professor lavozimiga tayinlanadi.

Fixtning “fan ta’limoti” juda katta qiziqish uyg‘otadi. 90 yillarda Veymar nafaqat falsafa, Germaniyaning madaniyat markaziga aylanadi. 1799 yilda ateizm to‘g‘risidagi bahs tufayli universitetdan va Yenadan ketishga majbur bo‘ladi. Fixte bir necha yil Berlinda yashaydi, maxsus ma‘ruzalar o‘qiydi; Yangi asarlarini nashr qildiradi. 1805 yilda Fixte Erlangen universitetida; 1806 yilda Keningsberg universitetida ma‘ruzalar o‘qiydi. Prussiyani Fransiyaga engilishi, Germaniyadagi bir necha universitetlarni Yopilishiga olib keladi. Fixte Berlinga qaytib kelib bir necha ommaviy ma‘ruzalar o‘qiydi; bularda u nemis xalqini siyosiy mustaqil, ma‘naviy tiklanishiga chaqiradi.

1810 yilda Berlin universiteti ochiladi, Fixte o‘zi xohlamasa ham falsafa fakulteti dekani lavozimiga tayinlanadi; bunda ko‘p ishlamaydi. 1812 yilda iste’foga chiqadi. Napoleon armiyasini engilganidan so‘ng Prussiya Fransiya bosqinchiligiga qarshi Yevropa davlatlariga qo‘shiladi. Fixtning fikrlari yana qayta tiklanadi. U xalq askarligiga Yoziladi. Uning turmush o‘rtog‘i yarador askarlarga qaraydi va Shunda tif kasaliga chalinadi. U kasaldan tuzala boshlaydi, lekin kasallik Fixtega ham yuqadi va 1814 yilda vafot etadi.

**“Fan ta’limoti” nazariy falsafa sifatida.** Fixte o‘z “fan ta’limoti”ni ShoShilinch ishlab chiqishga to‘g‘ri keladi. Kant o‘zining “Sof aql tanqidi” ustida 10 yil ishlagan bo‘lsa, Fixte kunlar orasida ishlashga to‘g‘ri keladi.

**“Fan ta’limoti”ning tamoyillari:** Fixte fikriga ko‘ra, amaliy va nazariy falsafani qo‘shuvchi zanjir *erkinlik* bo‘ladi; erkinlik amaliy falsafada real bo‘lsa, nazariy falsafada mistik xarakterga ega bo‘ladi; inson erkinligi ob’ektiv dunyo

bilan o'xshash namoyon bo'lmaydi; inqilob ijtimoiy munosabatlar falsafiy ta'limotlar bilan to'ldirilishi kerak; "Mening falsafam, - deb Yozadi Fixte – erkinlik sistemasidir!"

Fixte fikricha, aynan "fan ta'limoti" amaliy faoliyatni falsafiy asoslaydi. Fixte ning bu pozitsiyasi volyuntarizmga, irodaviylikka olib keladi. Fixte Kantning "narsa o'zidasi"ni ob'ektiv realligini inkor qiladi. Fixte uni qayta ko'rib chiqib o'zining "fan ta'limoti"ga moslashtiradi. Har bir maxsus fan o'z tamoyiliga suyanadi, lekin bu asos fandan kelib chiqmaydi, bu asosni fan to'g'risidagi falsafa berishi mumkin. Fixte bilimlarning sohalarini tahlil qilmaydi, balki ob'ekt va sub'ekt munosabatlarini ko'rib chiqadi. Fixte fikricha, "narsa Men tomonidan idrok qilinadigan hodisadir" falsafa ana Shu asoslardan kelib chiqsa "fan ta'limoti"ga aylanadi.

Fixte dogmatizm-transsendentdir, chunki u Menning chegarasidan chiqib ketadi. Aynan Fixte materializm va idealizm o'rtasidagi qarama-qarshilikni yaqqol ochib berdi. Fixte falsafaning asosiy masalasini aniq ko'rsatib berdi, aniq ta'rifladi. Fixte fikricha, "aqidaparast", borliqdan tafakkurga qarab boradi deydi, ya'ni tafakkurni borliqdan kelib chiqqan deydi. "Tanqidchi" esa tafakkurdan borliqqa qarab boradi deydi.

Fixte fikricha, materializmga (dogmatizmga) passiv, inert, atrofga nisbatan muShohadaviy munosabatda bo'luvchi insonlar kiradi. Idealizmga esa (tanqidiylikka) – faol insonlar, irodalilar kiradi. Fixte tafakkurni borliqqa munosbati masalasini hal qilishda *intellektual intuitsiya* haqida gapiradi.

- 1) intellektual muShohada – falsafaning qat'iy nuqtai nazaridir;
- 2) bu sof aql to'g'risidagi falsafiy bilimdir;

"Men" sof "Men"dan kelib chiqishi kerak. "Men" o'z-o'zini harakatga keltiradi, narsa orqali aniqlanmaydi, balki narsani aniqlaydi. "Men" bilish mumkinligini ham aniqlaydi.

### Uch "asoslov"

*Fikrlovchi "Men" o'zini faoliyatga chorlaydi, o'z-o'zini aniqlaydi* – bu birinchi asoslov:  $A=A$  "Men" = "Men"ga

“Men” “Men”dan kelib chiqadi;

“Men”da 2 ta faoliyat mavjud: *yaratuvchi (amaliyot)* va *biluvchi (nazariyot)*;

“Men” “sub’ekt-ob’ekt” sifatida qaralishi mumkin; ular birgalikda mavjud.

In’ikos masalasiga Fixte Shunday Yondoshadi, bizning tasavvurlarimizdan biri erkinlik hissiyotiga ega; ikkinchisi – zarurat hissiyotiga ega. Bu hissiyot bir-biri bilan bog’langan. Bu tasavvurlar sistemasi – tajribadir. Falsafa har qanday tajribani asosini ko’rsatishi Shart!!!

Tajribaning asosi Fixte fikricha, “Men”ning qarama-qarshiligini borligidir, ya’ni “Men-emas”ni taqozo qiladi; “A” ga “A” **teng emas** – bu mumkin;

**“Men”- “Men-emas”ni taqozo qiladi** –bu ikkinchi asoslov;

“Men-emas” hamma ob’ektiv reallikdir.

“Men-emas” hissiy qabul qilinadi. “Men” muShohada qiluvchi bo’lganligidan so’ng, muShohada qilinuvchi bo’lishi kerak; ana Shu muShohadalanuvchi – “Men-emas”dir. “Men”ning bu faoliyati ongsiz ravishda sodir bo’ladi. Fixte fikricha, muShohada taassurot natijasida sodir bo’ladi. Idrok “ruhning qobiliyatidir”. Taassurot natijasida uyg’ongan narsa “saqlanadi”, “mustahkamlanadi” – bu idrok faoliyati natijasida yuz beradi.

**Taassurot quvvati reallikni yaratadi.** Faqat “idrokda, uning mahsuloti ideallikdan reallikka aylanadi”! Demak, idrok “mavjudlik qobiliyati” sifatida ta’riflanishi mumkin. “Men”ning “haqiqiy hayoti” uchun, uning faolligi etmaydi; yana qandaydir turtki zarur, bu turtki “Men-emas” tomonidan bo’lishi kerak. Fixtning “Men-emas”i Kantning “narsa o’zidasi”ga asta o’tadi. “Men-emas” ham faoldir; bu yyerda ziddiyat hosil bo’ladi. Shu ziddiyatdan kelib chiqib Fixte **3-asolovni ilgari suradi;**

***Katta “Men” – kichik “men” va “Men-emas”ni taqozo qiladi;***

Katta “Men” eng umumiylikni ifodlaydi;

“Men” o’zining bunYodkor faoliyatida empirik “men” va “Men-emas”ga bo’linadi.

Unga har bir asoslovchi falsafa etib borishi kerak;

“eng umumiy “Men”” – mutlaqdir, *u dunyoviy ruhdur, ruhiy substansiyadir.*

**Antitetik dialektika.** Fixte antitetikani “Men”ning faoliyati sifatida ko‘radi. Antitetika yaratish va bilish jarayonidir; unga uchlik xos – *taqozo qiladi; inkor qiladi va sintez qiladi.* Fixte buni dialektik taraqqiyot manbai deb bilgan. Kant statikasini Fixte dialektik dinamika bilan almashtirdi. Kategoriyalar idrokning aprior Shakli emas, balki sistemadir; u “Men” faoliyati davomida rivojlanadi. Fixte “Men” va “Men-emas”ning o‘zaro ta’siri jarayonida reallik, inkor, bo‘linuvchan, sifatiy va miqdoriy aniqlanishni chegarasi, o‘zaro ta’sir va sababiyat kategoriyalari vujudga keladi. Bu mantiq qonunlarining “deduksiyasi” hamdir. U tafakkurda bilishni faollashishi bilan rivojlanib boradi. Ayniyat qonunini Fixte birinchi asoslovni namoyoni sifatida ko‘radi. ZiddiYot va uchinchisi istisno qonuni – ikkinchi asoslovning namoyonidir. Yetarli asos qonuni – uchinchi asoslovni namoyonidir.

**“Teosofiya”ga burilish.** Fixte 1802 yilda “fan ta’limoti”ni “mutlaq bilim” deb ataydi. Mutlaqlikni xudo bilan tenglashtiradi. Shu yerdan boshlab Fixtening “fan ta’limoti” teosofiyaga aylana boshlaydi.

**Amaliy, ijtimoiy-axloqiy falsafa.** Fixtening axloqiy konsepsiyasi ijtimoiydir. Kantning kategorik imperativini Fixte erkinliklarini namoyon qilish uchun maksimal kuchlarini jalb qilishlari sifatida talqin qiladi. O‘zining faolligi tufayli erkin bo‘lish va bu Yo‘lda har qanday to‘siqni engib o‘tish har bir insonning *axloqiy burchidir.*

Birovning erkinligini hurmat qilishgina har bir individ erkinligi chegarasi bo‘lishi mumkin. Fixte axloqning bunday talqini siyosiy, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotga munosabati bilan bog‘lanib ketadi; bunda erkinlik bog‘lovchi zanjir rolini o‘ynaydi. Fixte erkinlikni bilimdan ajratmaydi.

**Demokratik inqilobiy davr.** Fixtening ijtimoiy falsafasi Russoning “ijtimoiy Shartnomasi”ga o‘xshaydi. 1793-1797 yillarda Fixte har qanday davlat tuzilishini Shartnoma asosida bo‘lishligi kerakligini gapiradi; bu davlat har bir fuqaro erkinligini ta’minlashi kerak. Agar aksincha bo‘lsa, ya’ni “bir kishining erkinligi, hammaning qulligi” bo‘lsa, unda Shartnoma asosida o‘zgartirilishi

kerak. Fixte Russoning ketidan xalq suverinetetini tan oladi. Xalq eng oliy hokimiyatdir.

Agar ijroiya hokimiyati xalqqa qarama-qarshi tursa, unda uni hokimiyatdan olib tashlash kerak; isyon (bunt) emas, balki o'z huquqini tiklashga kiradi. 90-yillarda Fixte ta'biricha, insoniyatni feodallikdan qutulish davri keldi. Bu davr boshida axloqiy imperativ ustivor bo'ladi. Keyingi davrda ijtimoiy imperativlar qo'yiladi, ya'ni iqtisodiy, siyosiy masalalarni ko'rib chiqadi. Fixte erkinlik haqida o'ylashdan oldin, hayot, yashash haqida ham o'ylash zarur deydi; har bir inson o'z mehnati bilan kun kechirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Har bir inson mehnat qilishi kerak.

**“Yopiq tijoratchi davlat” (1800).** Fixte davlatning iqtisodiy ustivorligi, davlat tomonidan hamma narsa nazorat qilinishi kerak. Jinoyat jazolanishi kerak. Qonunga qat'iy rioya qilinishi kerak. Bunday davlat “qonunlar va individlarning Yopiq davlati”dir. “U aql davlati” hamdir – bu Yangi jamiyat tuzilishi. Fixte “etatizm” (fr. L'etat – davlat) demokratizmni inkor qiladi. Fixte markaziy planlashtirish g'oyasini ilgari suradi.

**Tarix falsafasi.** Fixte fikricha, insoniyat tarixi harakati 5 davrga bo'linadi:

**1-davr,** “Shartsiz aql, instinkt” hukmronligi davri;

**2-davr,** “aqliy instinkt tashqi majburiy avtoritet hukmdorligiga aylanadi”; bunda ko'r-ko'rona e'tiqod, so'zsiz bo'ysunish talab etiladi – cherkov dini hukmronligi nazarda tutiladi;

**3-davr,** o'z irodasiga bo'ysindiruvchi avtoritet hukmronligi ozod bo'lish; bunda Fixte tomonidan, Reformatsiya va diniy Ma'rifatparvarlik nazarda tutiladi; bu davr har qanday haqiqatlarga beparvolik nazarda tutiladi; 1806 yilda insoniyat 3-davrda yashamoqda. Insoniyat tomonidan erkinlikka erishish **4-davrda** boshlanib 5-davrda yakunlanadi.

**5-davr,** “aql san'at darajasiga ko'tarilgan davrdir”. Insoniyat bu davrda o'z tafakkuri Yordamida o'z hayotini yaratadi. Ilmiy bilimni Fixte doimo Yuqoriga ko'taradi.

**Fridrix Vilgelm Iosif Shelling** (1775-1854yillar) yilda Leonberg Shahrida, pastor oilasida tug'ildi. 15 Yoshida seminariyani tugatdi. 1790 yilda Tyubengen ilohiyot instituti talabasi bo'ladi; Fransuz inqilobi ta'sirida hurfiylik bilan qiziqadi. 1791 yilda Kantning "Sof aql tanqidi"ni o'qib chiqadi. 1794 yilda Fixtning "fan ta'limoti" bilan tanishadi. 1794 yilda "Umuman falsafaning qandaydir Shakli haqida" nomli birinchi asarini Yozadi. 1795 yilda "Men falsafaning tamoyili haqida"; Fixte Shellingni bu asarini maqtaydi.

1795 yilda "Dogmatizm va tanqidiylik haqida falsafiy maktublar" asarida Shelling Fixte falsafasidan uzoqlashadi. Tyubengen institutini tugatib Shelling pastorlik lavozimidan voz kechib, uy o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. (Leybsigda oqsuyaklar oilasida); bo'sh vaqtlarida falsafa, matematika, fizika, meditsina bilan Shug'ullanadi.

1797 yilda "Tabiat falsafasi g'oyalari" asarini Yozadi. O'zining original falsafiy konsepsiyasini yaratadi. Bu asarini nashr qilinishi 1798 yilda Gete Yordamida sodir bo'ladi, uning Yordamida Yena universitetining professori bo'lib ishga kiradi. 1799 yilda Fixteni bu universitetdan ketishi Shellingni etakchi faylasuf bo'lishiga olib keldi.

Shelling 2 yil davomida naturfalsafani ishlab chiqdi. Shelling falsafasida asosiy burilish "Transsendental idealizm sistemasi" 1800 yildagi asari bo'ldi. Bu asar naturfalsafani "fan ta'limoti" bilan sintezi bo'ldi. Fixte bu ish bilan tanishib Shellingni "fan ta'limoti"dan uzoqlashganligini aytadi. Bu esa Shelling va Fixte o'rtasidagi ajralishni yanada chuqurlashtiradi. Bunga Gegelning "Fixte va Shelling sistemasi o'rtasidagi farq" asari ham sabab bo'ladi.

1801 yilda Shelling o'z asarining birinchi bobida falsafasining originalligini gapiradi. Ob'ektivlik va sub'ektivlikning mutlaq bir-biriga aynan tushishi hamma mavjudlikning manbasi bo'ladi, deydi Shelling. Shelling "ayniyat falsafasi" darajasiga ko'tariladi. 1802 yilda "Mening falsafiy sistemamning keyingi talqini" asarini Yozadi.

Shelling 1806 yilda "Fixte" ta'limotiga naturfalsafaning munosabati – Fixtning tabiatga bo'lgan munosabatini qoralaydi. 1804 yilda "ayniyat falsafasi"ni

“Falsafam tizimi” nomli asarida bayon qiladi. O‘z falsafasining cho‘qqisi hisoblaydi. Falsafasini asosini diniy afsonalardan qidirishga harakat qiladi. Bu Yo‘lda birinchi qadami “Bruno yoki narsalarning ilohiy va tabiiy asoslari” asari bo‘ldi (1802);

1803 yilda “Falsafa va din”.

1803 yilda Shelling Yena uiversitetidan ketadi.

1806 yilgacha Vyursburg universitetida dars beradi.

1802-1805 yillarda “San’at falsafasi” kursini ishlab chiqadi.

1804 yilda “Umuman falsafa tizimi, xususan tabiat falsafasi” kursini ishlab chiqadi – teosofiyaga Yo‘naltirilgan.

1806-1820 yillarda Myunxenda bo‘ladi, Bovariya poytaxti. Shuni o‘rtasida SHtutgardda ham bo‘ladi (1810). Bu yyerda Shellingni ehtirom bilan kutib olishadi. Bovariya Fanlar akademiyasining a‘zosi qilib saylashadi; nozik san’at Akademiyasining bosh kotibi lavozimiga tayinlashadi. 1817 yilda Fanlar akademiyasi falsafa bo‘limi bosh kotibi bo‘lib ishlaydi. 1807 yilda Gegelning “Ruh fenomenologiyasi” asarini o‘qib chiqadi. Shellingga bu asar qattiq zarba beradi. 1809 yilda Shellingning “Inson erkinining mohiyati va u bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarning falsafiy tadqiqoti” nomli asari ziYolilar tomonidan tanqidiy kutib olinadi. Shundan keyin Shellingda qo‘rquv hissi tug‘iladi, keyingi asarlarini nashr ettirishga yuragi dov bermaydi.

1811-1815 yillarda “Mifologiya haqida ma’ruzalar” Yozadi.

1820-1827 yillarda Erlangen universitetida ma’ruza o‘qiydi. Keyin Myunxenga qaytadi, Shahar ilmiy kolleksiyasini saqlovchisi bo‘lib ishlaydi. Bovariya Fanlar akademiyasining prezidenti lavozimiga saylanadi. Mahalliy universitetlarda ma’ruzalar o‘qiydi. Shelling Gegel nufuzini oshib borayotganligidan aziyat chekadi. Gegel Shellingning ayniyat g‘oyasini o‘g‘illab oladi. 1840 yillarning boshida Shellingning Gegelga qarshi kurashi boshlanadi.

1841 yilda Berlinga kelib prussiya hokimiyati tomonidan Gegel maktabi ta’sirini susaytirish uchun universitet professori lavozimida ma’ruzalar o‘qiydi. Bu vazifaga Shelling jon jahdi bilan kirishadi. Dastlab uning ma’ruzalari katta qiziqish

uyg'otadi. Uni ma'ruzalarida avstriya posoli knyaz Metternix, rus anarxisti M.Bakunin, daniyalik faylasuf S.Kerkegor, F.Engels qatnaShadi. Shelling o'z ma'ruzalarida Gegel falsafasiga qarshi chiqadi. "Mutlaq idealizm" Shaklida tuzadi. Gegelni borliqni realligini ilohiy vahedan topish mumkinligini izohlaydi; Shundan so'ng Shelling tinglovchilari asta kamaya boshlaydi. Oxirgi 10 yillarda Shelling oilaviy tashvishlarga o'zini bag'ishlaydi.

1848 yilda Shelling siyosiy qarashlari reaksiyon tus oladi. 1853 yilda uni tarbiyalanuvchisi Bovariya qiroli Maksimilian P uni ko'rishga keladi. 1854 yilda vafot etadi.

**"Fan ta'limoti"dan "naturfalsafa"ga.** Shelling falsafasini rivoji bir g'oyadan voz kechib ikkinchisiga o'tish bilan xarakterlanadi. Bundan maqsad mutlaqlikni bilishdan iborat edi. Dastlab Shelling xususiy fanlar orqali mutlaqlikni bilishni istaydi. Buni u Fixtning "Men"idan qidiradi. Keyin tabiatga murojaat qiladi. Shelling keyin ibtidoni mutlaq ruhda ko'radi; ongsiz intellektda – ob'ekt va sub'ektning aynaligi sifatida talqin qiladi. Keyin Shelling mutlaqlikni xudoda ko'radi; boshqa narsalar esa uning vahelari sifatida mavjud.

Shelling – fixtecha "fan ta'limoti" – "naturfalsafa" – "transsendental idealizm" – "ayniyat falsafasi" – "vahelar falsafasi" – falsafasining konsepsiyasidir. Shelling naturfalsafasi va transsendental idealizmi va ayniyat falsafasi chuqurroq mazmunga egaligini, u "salbiy falsafa" deb ataydi, chunki ular aqlga tayangan; dialektik muammolar koni va dialektik yechim topgan.

Shelling falsafiy yikrining xarakteri naturfalsafa orqali "men-emas"ni asosli xarakterlab berishdan iborat bo'lgan. Buni amalga oshirish uchun Lametri, Didro, Golbax, Kant ta'limotlari yetarli emas edi, ba'zan ularga suyangan bo'lsa ham. Shelling Leybnitsning monadologiyasiga tayanadi; unda tabiat quvvati ruhiy borliq sifatida namoyon bo'ladi, ular nomoddiy faollikka ega;

Shellingga Leybnits monadologiyasini ta'siri Robinening "tabiat haqida" asari orqali bo'ladi; o'sha davrda Robinening nufuzi Germaniyada juda katta edi.

YAna 18 asr oxirida tabiiy-ilmiy fanlarning natijalari ham Shellingga katta ta'sir qiladi; Masalan, italyan olimi Galvanining elektr hodislarini o'rganishi,

ularni organizmlardagi o'zgarishlar bilan bog'liqligi; italyan olimi Voltning kimyoviy jarayonlar to'g'risidagi ta'limotlari. Magnitizm va elektrning bog'liqligi masalasi o'rtaga tashlandi. Elektr, magnit kimyoviy, organik hodisalar tabiati mohiyatida qandaydir "kuch" Yotadi degan ta'limot ustivor bo'lgan – 18 asr oxirlarida.

Shelling naturfalsafasi tabiatni ideal mohiyati g'oyasiga tayangan edi. Fransuz faylasuflari tomonidan materiyaning ichki faolligi to'g'risidagi g'oyalari nemis faylasuflari tomonidan diqqat e'tiborga olinmagan edi. Shelling ham tabiatni uni faol kuchi orqali xarakterlaydi; Shunda uni "idealligi" ochiladi.

**Naturfalsafiy dialektika.** Shelling tabiat "faoliyati"dan dialektik xususiyatga egaligini aniqlaydi. Aloqalar haqida o'ylab, Shelling ularning tabiiy birligi haqida xulosa qiladi. Bu birlikning empirik namoyonining "galvinizm"da ko'radi. Shelling uni dinamik jarayon sifatida talqin qiladi; unda elektr, magnit, kimyoviy va boshqa hayotiy faoliyatlar qo'shiladi.

Shelling fikricha, galvanizm tirik tabiatni, notirik tabiat bilan bog'laydi, Shuning uchun u tabiiy dunyoni markazini hosil qiladi. Shelling Kantning itarilish va tortilish kuchini birligi haqidagi g'oyasiga, nemis biolog olimi K.F.Kilmeyerning tabiat organizmida qarama-qarshi kuchlarning fundamental ahamiyati haqidagi fikriga asoslanib xulosa qiladi.

Har qanday mavjudlikni mohiyatini qarama-qarshi kuchlarning birligi hosil qiladi; bu dialektik birlikni Shelling "qutblilik" deb ataydi; uni buzilmas magnit qutblarida ko'radi; elektrda musbat va manfiy zaryadlarida; kimyoviy unsurlardagi kislotali va ishqorli xususiyatlarda; organik jarayonlarda junbuShga kelish va tormozlanishda ko'radi; ongda sub'ektivlik va ob'ektivlikda ko'radi.

Qutblikni Shelling "haqiqiy dunyoviy jon" sifatida xarakterlaydi; bu faoliyat butunlikda, qismlikda ochib beradi. Bu harakatni asosi qarama-qarshilik birligi ekanligini isbotlar edi. Shelling qarama-qarshi kuchlarni o'zaro "kurashi" sifatida tushunga n. Tabiiy tuzilmalar ana Shu "kurash"ning turli namoyonidir. Hayot Shelling tomonidan borliqning universal-mohiyatliy Shakli sifatida talqin qilinadi. Narsalardagi mohiyatliylik bu uning hayotiyliygidir. Narsalar organizmning

mohiyatiy xususiyati emas, balki organizmlik narsalarning mohiyatiy xususiyatidir.

“Hayot” va “organizm” Shelling tomonidan “tabiat idealizmi” sifatida, ruhiy, nomoddiy asos sifatida tushunilgan. Umumiy organizm Shelling tomonidan ideal Shakl sifatida tushunilgan. U borliqning Yangi-Yangi turlarini yaratadi; oddiy mexanizmlardan tortib to fikrlovchi jonli mavjudotlargacha. Demak, Shelling rivojlanish qarama-qarshiliklar kurashi natijasida sodir bo‘ladi, deydi. Dialektika tabiatga ham xosdir, deydi. Shelling dialektikani naturallashtiradi.

**Materiyani “idealistik” tuzish.** Shelling “tabiat idealizmi”da uni tuzilishini moddiy aniqlovchisi ahamiyatga egadir. Dekart kabi materiya mohiyati uni ko‘lamliligidir, u 3 o‘lchovga ega. Bu o‘lchovlar: magnitizm, elektrligi va kimyo viyligi;

Magnitizm kuchlarning to‘g‘ri chiziqli faolligidir. Magnitizm materiyani tuzilishining uzunlik Shartidir. Uzunlik tabiatda faqat magnitizm Shaklida mavjud. Elektr zarayadlari ma‘lum burchak ostida harakat qiladi. U materiyaning kengligini aniqlaydi. Kimyo viy o‘zaro ta’sirlar turli Yo‘nalishlar bo‘yicha harakat qiladi. U balandlikni hosil qiladi; “tabiatning ibtido kuchlari” uchiligi, ya’ni magnetizm, elektr va kimyo viylik tabiat rivojini tushunishda ishlatiladi. Materiyani kimyo viy-fizikaviy darajadan organiklik darajasiga ko‘tarilishi moddiylikning “imkoniyatli” xususiyatidir. Yuqoridagi kuchlarni eng yuksak rivoji hissiylikni, ta’sirlanishni va qayta ishlab chiqishni keltirib chiqaradi. Bunday kuchlar – tortilish va itarilish, tortilish va og‘irlik – magnetizmni tortilishini imkoniyati. Kimyo viylik – og‘irlik imkoniyatidir. Kuchlar funksiyasi jihatidan qarama-qari bo‘lishi mumkin.

Tortiluvchi kuchlar makonda “Shakllanishni hosil qiladi – tortilish, og‘irlik, qo‘shilish, magnetizm, kimyo viylik”. Itariluvchi kuchlar buzilishga olib keladi – Yorug‘lik, elektr, issiqlik.

Shelling naturfalsafasi bilan Fixtning “fan ta’limoti” bir-birini to‘ldiradi. Shelling fikricha, fikrlovchi inson eng Yuqori darajada paydo bo‘lgan. Shelling Fixtning fan ta’limotini ob’ektivlashtiradi.

**Transsendental idealizm sistemasi.** Shellingning “transsendental idealizm sistemasi” ijodining markazini tashkil qiladi. “Transsendental idealizm sistemasi” tuzilishi – nazariy falsafa – amaliy falsafa – amaliy falsafa – tabiiy falsafa maqsadi – san’at falsafasidir.

Nazariy falsafa – bu Kantning “Sof aql tanqidi”ga o‘xshaydi;

Amaliy falsafa – bu “Amaliy aql tanqidi”ga o‘xshaydi;

Tabiat falsafasi va san’at falsafasi – bu “MuShohada qobiliyati tanqidi”ning ikkinchi qismidir.

**Nazariy falsafa.** Shellingda o‘z-o‘zini biluvchi “Men” – Leybnits monadologiyasi bilan qo‘shiladi. Ob’ektivlik sub’ektivlikda faoliyat orqali namoyon bo‘ladi. O‘z-o‘zini bilish jarayonida “Men” – o‘z-o‘zi uchun ob’ektga aylanadi. Falsafa – bu o‘z-o‘zini bilish tarixidir. Ular turli davrdan o‘tadi.

Shelling 3 davrni ko‘rsatadi: 1) birinchi hissiyotdan yaratuvchi idrokkacha; 2) yaratuvchi idrokdan to in’ikosgacha aks ta’sirgacha; 3) in’ikosdan mutlaq iroddan aktigacha, harakatigacha.

**Birinchi davrda** – tushuntirish Yotadi; “Men” hissiyot ob’ekti sifatida namoyon bo‘ladi;

**Ikkinchi davrda** – kategoriyalar deduksiyasidan boshlanadi – makon – zamon – ob’ekt – sub’ekt – aksidensiya – sababiyat – o‘zaro ta’sir – mavjud bo‘lish – munosabat. Kategoriyalar deduksiyasidan “tabiatni tuzilishi” namoyon bo‘lib boradi. O‘z-o‘ziga ob’ekt bo‘lgan “intellekt” ob’ektiv ruh xususiyatlariga ega bo‘lib boradi

**Uchinchi davrda** – inson ongi va o‘z-o‘zini anglashni mavhum tahlil qilingan Shakllanishi jarayonidir. Bu kishilarning amaliy faoliyati bilan bog‘lanadi.

**Amaliy falsafa.** Amaliy falsafa inson erkinligini namoyonidir. Shelling ijtimoiy-tarixiy jarayonlarga diqqatini qaratadi; bu huquqiy tuzumni tashkil qiladi; har bir davlatdagi huquq tuzumi boshqa davlatlar bilan o‘xshash holda Shakllanishi kerak va ular federatsiyaga qo‘shilishi kerak. Shelling tarixiy jarayon erkinlik va zaruriyatning dialektik birligini namoyon qilishi kerak;

**Shelling tarixda begonalashish masalasini ko‘taradi.** Tarixda proizvol-boshboshdoqlik hukmronlik qiladi, hech qanday nazariya insoniyatni bo‘lajak harakatini aniq kzsatib bera olmaydi; masalan, Fransuz inqilobi;

Tarixiy boshboshdoqlik “mutlaq” xarkterga ega emas;

Tarixda “ko‘r-ko‘rona zarurat” hokimlik qiladi;

Tarix *maqsadi* : uzluksiz ravishda *mutlaq* = *vahelarini namoyon bo‘lishidir!*

Tarixni Shelling fikricha, 3 davrga bo‘ladi:

**Birinchi davr** – fojiiyaviy xususiyatga ega; ko‘r-ko‘rona kuchlar qadimgi buyuk davlatlarni yakson qilgan;

**Ikkinchi davr** – (Rim imperiyasini kengayishi) xalqlarni tabiiy qonuniyatlar asosida birlashishi;

**Uchinchi davr** – kelajak, taqdir va tabiat kuchlarining hukmronlik davri – xudoni vahelari bilan almashadi.

**Tabiat falsafasining maqsadiyligi.** Tabiatda o‘zini Shakllantiruvchi ko‘r-ko‘rona kuchlar mavjud. Bu ob‘ekt va sub‘ektning ayniyatidan kelib chiqadi. Tabiat maqsadiyligi uni idrok qilinishidan kelib chiqadi.

**San‘at falsafasi.** Shellingning san‘at falsafasi “o‘z-o‘ziga maqsad”ni tashkil qiladi. Shellingning «San‘at falsafasi» uning «transsendental idealizm tizimi»ning yakuniy qismi bo‘lib, san‘atga u alohida e‘tibor beradi. Shu bilan birga san‘atga qadriyat nuqtai-nazaridan qaraydi. Faylasuf san‘atda «o‘zidagi maqsad»ni ko‘radi. U amaliy foydaga, axloqqa, fanga (falsafaga) bo‘ysunmaydi, chunki san‘at ulardan ustun turadi. San‘at, deydi Shelling, bu mutlaq (Xudo)ni bilishning oliy Shaklidir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda san‘at fanning muayyan ko‘rinishidir.

San‘at oqillik va oqilsizlikning mutlaqo aynanligini ifodalaydi. Shellingning ta‘kidlashicha, badiiylikning dahosi o‘z asarini nafaqat o‘zining akliy fikri bilan, balki, birinchi navbatda, aqlsizlik ilhomi bilan amalga oshiradi va pirovard oqibatda uni cheksiz Mutlaq bilan bog‘laydi. Estetiklashgan Shaklda Shelling falsafiy ratsionalizmdan irratsional dunyoqarashga yuz o‘girdi.

Shelling aytadiki, san'at bu falsafaning hujjatidir. San'at uning birdan-bir azaliy va haqiqiy qurolidir. Madaniyatning Shakllanishida falsafa va fanlar o'z ichiga oliy haqiqat bilan to'lgan mifologik dastlabki «poeziya»si asosida tug'ilgan, deb Yozadi faylasuf. Endi esa, deydi u, vaqti kelib barcha fanlar falsafa bilan birgalikda yana qaytadan poeziyaning okeaniga qo'shilishi kerak.

Bu jarayonning zaruriy bo'g'inini Shelling «YAgona mifologiya»da, estetiklashgan diniy ongda ko'radi. Uni yaratishga da'vat etadi va ko'p o'tmay «Mifologiya falsafasi» doirasida uni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. San'at azaldan mavjud birdan-bir baShoratdir, degan fikr faylasufni bir daqiqaga ham tark etmaydi.

Oliy borliq birdan-bir reallikdir. Bir necha yildan keyin Shelling oxir-oqibat o'zining butun diqqat-e'tiborini «BaShorat qilish falsafasi»ga olib keldi. Ilohiy haqiqat o'z-o'zini bilish ta'limotidir, deb tushundi. Shelling ta'limoti keyinchalik uning vatandoshi va zamondoshi Gegel tomonidan rivojlantirildi.

**Georg Vilgelm Fridrix Gegel** (1770-1831 yillar) – SHtuttgart Shahrida tug'ilgan, otasi hisobchi kotib bo'lgan; oliy tabaqaga kirgan. Gimnaziyada a'lochi bo'lib, qadimgi adabiyotga qiziqqan; pastor lavozimiga tayyorlashadi. 1788-1793 yillarda Tyubengan ilohiyot institutida o'qiydi. “Axloq mas'uliyat chegaralari” nomli magistr dissertatsiyasini Yoqlaydi; yaxshi o'zlashtirganligi uchun Gegel ilohiyot nomzodi darajasi beriladi. Fransuz inqilobi Gegelga katta ta'sir ko'rsatdi. Russo ta'limotini Yoqtiradi.

Gegel ham pastor lavozimidan voz kechib uy o'qituvchisi bo'lib ishlaydi – 1793-1796 yillarda Bernda. 1797-1800 yillarda Frankfurt Maynda. Otasining o'limidan so'ng o'z merosini olib, falsafiy faoliyat bilan Shug'ullanadi;

1801 yilda Yenaga keladi; 2 ta dissertatsiya Yoqlab privat-dotsent lavozimida ishlaydi. Birinchi yirik asari “Shelling va Fixte falsafiy sistemalarining farqi” (1801) – Fixteni tanqid qiladi;

1802 yilda bir qancha maqolalar Yozadi. Shelling bilan birgalikda “Falsafiy tanqidiy jurnal”iga muharrirlik qiladi. 1802-1807 yilda Shellingchi deb bilishadi; aslida esa bunday emas. Yena universitetida mantiq, metafizika, ruh falsafasi,

tabiat falsafasi, tabiiy huquq, falsafa tarixidan dars beradi. O‘zining falsafiy sistemasini Shakllantiradi.

1801-1807 yillarda “Ruh fenomenologiya”sini Yozadi.

Yena fransuzlar tomonidan okkupatsiya qilinishi tufayli universitet Yopiladi. Gegel Bovariyaning Bamberg Shahriga keladi; bu yyerda do‘sti Nitxamer Yordamida mahalliy gazetaga muharrirlik qiladi; 1,5 yil ishlaydi; gazeta Yopiladi; keyin Shu do‘sti Yordamida Nyurenburg gimnaziya direktori lavozimiga tayinlanadi.

Nyurenburgda Gegel “Mantiq fani”ni Yozadi (1808-1812) nashr qilinadi. Ikkinchi nashri 1812 yilda bo‘ladi. Bu asari tufayli Gegel Geydelburg universitet falsafa kafedrasiga ishga taklif qilinadi (1816-1818).

1817 yilda “Falsafiy fanlar qomusi” asarini nashr qildi, bu uning falsafiy sistemasini edi.

Kantning “tanqidiy falsafasi”dan keyin bu Germaniyadagi asosli ishlangan falsafiy sistemadir. Gegel yirik faylasuf sifatida tan olinadi. Gegel Berlin universiteti falsafa kafedrasiga taklif qilinadi; umrining oxirigacha Shu yerda qoladi.

1821 yilda “Falsafiy huquq asoslovi”;

1826 yilda “Huquq falsafasini” nashr qiladi;

Prussiya tuzumi nemis ijtimoiy taraqqiyotini yuksak cho‘qqisi sifatida Gegel tomonidan Yoqlandi.

1827 yilda “Falsafiy fanlar qomusini” – ikkinchi to‘ldirilgan nashri chiqadi;

Gegel falsafasi ko‘p tinglovchilarga tushunarsiz bo‘lib qolaveradi. Tushunarsizlik chuqurfikrlilikdan dalolat beradi. Gegel 1831 yilda 14 noyabrda xoleradan vafot etadi.

Gegel davrida gegelchilar maktabi tuzildi. SHogirdlari Gegel o‘limidan keyin 18 jildlik asarlari to‘plamini nashr qildirdilar: ularning “Falsafa tarixidan ma’ruzalar”, “Tarix falsafasidan ma’ruzalar”, “Estetikadan ma’ruzalar”, “Din falsafasidan ma’ruzalar”.

**Gegelning falsafiy qarashlari.** Hegel ob'ektiv idealizm sistemasini ishlab chiqdi. Hegel Shellingning fundamental g'oyalariga tayanadi (asosan naturfalsafasiga).

Reallik yoki borliq – mutlaq ideal borliqdir.

Dunyoviy aql, Logos, Ruh, Ong, Sub'ekt – bu mutlaqlikdir.

Mutlaqlikning asosiy xususiyati – ijodiy faolligi, rivojlanish, namoyon bo'lishdir.

O'z taraqqiyotida turli bosqichlardan o'tadi, turli shakllarda namoyon bo'ladi, ochiladi – o'z-o'zini bilishga intiladi.

Gegelda qanday qilib g'oyadan tabiat, tabiatdan ruhning tug'ilishiga tushuntirish Yo'q. Hegel Shunday deb ta'kidlaydi; mutlaqning bunday ochilishi vaqtdan tashqarida sodir bo'ladi. Shundan vaqtning abadiyligi kelib chiqadi. Vaqt faqat insoniyat tarixiga xosdir. U ruhning rivoji bilan bog'lanadi. Mutlaq ruh rivoji Yopiq doira ichida kechadi. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi jarayonida bo'ladi, ularning sintezi ruh bo'ladi.

**Gegelning asosiy g'oyasi** – sintezni tug'ilish jarayonidan ajratib bo'lmaydi, “sof natijaning” o'zi “o'likdir”.

**Mutlaqning asosiy 3 bosqichiga** – falsafaning 3 qismi to'g'ri keladi.

**Mutlaq o'zining har bir bosqichida bir necha bosqichlardan o'tadi, bu falsafaning 3 qismini ichki tuzilishini aniqlaydi.**

Falsafada Mutlaq g'oya Mutlaq ruh Shaklida o'z mohiyatini bilib, “o'ziga faytib keladi”. Shu yerda jarayon tugaydi. Hegel sistemasi tugallanadi: “imtixo”, “ibtido” bilan qo'shiladi. Boshqa tomondan gegel uslubi dialektik xususiyatga ega, abadiy harakatni tashkil qiladi, bu harakat Yopiq doira ichida abadiy bo'ladi.

**Mantiq.** Hegel fikricha, mantiq faqat inson tafakkuri Shakllari va qonunlari haqidagi fandır. Hegel mantiqni fan sifatida: klassik, aristotelcha va formal bo'ladi. Hegel formal mantiqning kamchiliklarini aytib ketadi.

**Birinchiidan,** formal mantiq faqat inson tafakkuriga bog'liq, u mutlaqning faoliyatini ochib bera olmaydi;

**Ikkinchidan**, formal mantiq qotib qolgan Shakil bilan ish ko‘radi, mutlaqning mohiyatini harakat, taraqqiyot hosil qiladi;

Bundan Yangi dialektik mantiq Shakllanishiga ehtiyoj tug‘iladi. Bu butun fanning mohiyatini tashkil qilishi kerak, ya’ni mutlaqning rivojlanish qonuni haqidagi fan paydo bo‘lishi kerak. Ibtidosidan borliq va tafakkurning aynanligidan kelib chiqib, dialektik mantiq – ontologiya, gnoseologiya va mantiqni tashkil qiladi.

### **Mantiq=ontologiya=gnoseologiya**

“Mantiq fani”da Gegel falsafaning eng umumiy tushunchalarini Shakllanishi, o‘zaro aloqasini bayon qiladi: “borliq”, “noborliq”, “Shakllanish”, “sifat”, “miqdor” va “me’Yor” va h.k. Tushunchaning rivoji “mavhumlikdan konkretlikka” qarab harakat qiladi.

### **Tabiat falsafasi**

Gegelning tabiat falsafasi eng kam e’tibor bergan qismlaridandir. Bu bo‘lim uning tomonidan yaxshi ishlanmagan.

### **Ruh falsafasi**

Ruh falsafasi esa juda chuqur tadqiq etilgan. Ruh bu mutlaq g‘oyadir, u moddiylik, ya’ni tabiat asirida bo‘lib, mutlaq g‘oyaga aylanadi. Ruh ham ibtido ham imtihodir. *Sub’ektiv ruh – antropologiya, fenomenologiya, psixologiya;*

*Ob’ektiv ruh – huquq, axloq, xulq;* ob’ektiv ruhning rivoji davlatga olib keladi.

Tarix bu dunyo haqidagi hukmdir.

Dunyoviy tarix “o‘z tafakkuri”ga ega;

Bizga Yovuzlik bo‘lib ko‘ringan hamma narsa (qaShShoqlik, uruShlar va h.k.) o‘tuvchan xarakterga ega.

**“Hamma haqiqat aqlga monand, aqlga muvofiq narsa haqiqatdir!!!”**

Dunyoviy insoniyat tarixining harakati erkinlik va aqlga muvofiqlikni ortishi bilan bog‘lanadi;

Tarix uch davrni bosib o‘tadi:

1) Sharqiy jamiyat (hamma quldir);

2) yunon-rim dunyosi (alohida individlar) erkinlikka ega;

3) nemis-xristian dunyosi (hamma erkin).

Tarixda erkinlik sifatida namoyon bo'lgan mutlaq g'oya mutlaq ruh bosqichida o'z-o'ziga qaytadi, o'z-o'zini biladi, keyingi bosqichga o'tadi;

*Mutlaq ruh – san'at (hissiy idrok orqali o'zini biladi – estetika);*

*Din (e'tiqod orqali namoyon bo'ladi);*

*Falsafa (sof tushuncha orqali namoyon bo'ladi).*

Bu bosqichda mutlaq o'z mohiyatini anglaydi va doira Yopiladi.

Mutlaq va xudo – hamma mavjudlikning yaratuvchisidir. Xristianlikdagi – ota Xudoga to'g'ri keladi.

Dastlab mutlaq Shaxs xususiyatiga ega bo'lmaydi.

Insonga falsafa kundalik ongdan mutlaq darajasigacha ko'tarilishga Yordam beradi.

**Lyudvig Andreas Feyerbax (1804-1872 yillar)** – Bovariyaning Landsgut Shahrida huquqshunos oilasida tug'iladi. Otasi Anselm Feyerbax. 1823 yilda gimnaziyani tugatgach Geydelberg universitetining ilohiyot fakultetiga kiradi. Gegelchi Karl Daub ma'ruzlaridan keiyn unda falsafaga qiziqish uyg'onadi; o'qishning 2-yilida Berlin universitetiga o'tadi. U yerda 2 yil davomida Gegelning butun kurs ma'ruzalarini tinglaydi; natijada aytadiki “Gegel mening 2-otam. Berlin bo'lsa, mening ruhiy vatanim”.

1825 yilda akasi “ilohiyotni falsafaga almashtirganligi” to'g'risida xat Yozadi; “menga e'tiqod emas, tafakkur kerak deydi”; Arastu, Spinoza, Kant va Gegelni o'zini do'stlari deb ataydi.

Feyerbax dastlab birinchi fikri – xudo degan edi. Keyin ikkinchisi – tafakkur deydi. Uchinchisi esa, tabiat bilan uyg'unlik haqida gapiradi.

Feyerbax 1839 yilgacha gegelchi bo'lib qoladi. Feyerbax gegel falsafasi bilan Shug'ullanib undan “materialistik mazmun”ni topishga harakat qildi. Ilohiyotga nisbatan noroziligi Feyerbaxni Gegelga nisbatan norozilikka olib keldi. Feyerbax Gegelni fikr dunyosini o'tgan dunyo deb atadi. Feyerbaxning Gegeldan ajralishi 10 yilcha davom etdi.

Feyerbaxning dissertatsiyasi 1828 yilda “YAgona, universal, abadiy tafakkur haqida” deb nomlanadi. Tafakkurni antropologizatsiya qiladi. “Aql – bu insonlar insoniyligidir, ularning turidir...”. Feyerbax dissertatsiyasini taqriz uchun Gegelga yuboradi. Gegel uzoq vaqt taqriz bermaydi, Shuning uchun Feyerbax ishini Berlinda emas, balki Erlangen universitetida himoya qilishga majbur bo‘ladi.

1829 yilda Feyerbax Erlangen universitetining privat-dotsenti bo‘ladi.

1832 yilgacha mantiq va metafizikadan ma’ruzalar o‘qiydi.

Mantiqni Feyerbax “yuksak falsafa” sifatida emas, “falsafaning bir qismi” sifatida o‘qiydi.

1830 yilda Feyerbax anonim tarzda Nyurenburgda “O‘lim va abadiylik haqida fikrlar” asarini nashr qildiradi.

Feyerbax butun insoniyat birdam bo‘lib, o‘z-o‘ziga diqqatini qaratishi kerak, deb hisoblagan.

Feyerbaxcha xristianlikni tanqidi, ijtimoiy hayotni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan edi; Gegel maktabini birinchi tugatganlardan faqat Feyerbax “borliq bilan moslashuv” Shartini inkor qildi; “falsafadan xristianlikni ketishini” Feyerbax olamShumul tarixiy davr, deb hisoblagan, lekin “O‘lim va abadiy hayot to‘g‘risidagi fikrlar”ini muallifini aniqlaganliklaridan so‘ng, uni Erlangen universitetidan haydaShadi, umuman o‘qituvchilik faoliyati bilan Shug‘ullanishga man qiladilar.

1833 yilda Feyerbax o‘zining falsafiy qarashlarini faqat maqolalardagina bayon qila oladi.

1837 yilda Feyerbax Berte LYovga uylanadi, oilaviy baxtga erishadi. Rafiqasini qishloqda farfor idish yasaydigan fabrikasi bo‘ladi; Brukberg qishlog‘ida yashaydi. Dastlab qishloq g‘aYoti uni falsafiy ijodiga katta Yordam beradi, lekin Shaharning ma’naviy madaniyatidan ajralib qolishi uni ruhan eza boshlaydi.

1833 yilda Feyerbax “Bekondan Spinozagacha Yangi falsafa tarixi” asarini Yozadi. Bu asar gegelchilar tomonidan Yuqori baholanadi. Feyerbaxni “Berlin yilnomasi” jurnali bilan hamkorlik qilishga taklif qiladilar.

Feyerbax falsafa tarixini Yangicha talqin qiladi. Feyerbax Leybnits (1837) va Beyl (1838) haqida monografiya Yozadi; ular idealistik talqin qilinadi. Feyerbax o‘z diqqat markaziga falsafiy hurfikrlik bilan diniy aqidaparstlik kurashini qo‘yadi.

Yangi falsafa sxolastikadan empirizm elementi bilan tubdan farq qiladi, deydi.

Feyerbax Bekonni birinchi – “empirik fizik” deb ataydi va Yuqori baholaydi.

1839 yilda Feyerbax “Gegel falsafasini tanqidi” asarini chop qiladi. Bu asarda Hegel falsafasi bilan butunlay aloqa uzildi.

*“Borliq asosini tabiat hosil qiladi”, deydi. Inson tabiatning yuksak bosqichidir. U fiziologik va ruhiy mavjudotdir.*

Feyerbax bu falsafani materialistik deb atamaydi, uni hissiyot orqali qabul qilinadigan moddiyat deb ataydi. Feyerbax gegelcha ayniyat prinsipini ham inkor qiladi. Bu falsafa uchun halokatdir. Buni Feyerbax dogmatizm da va Shellingcha ayniyat falsafasi notanqidiy qabul qilinganlikda ayblaydi. Feyerbax haqiqatni “genetik tanqidiy falsafada” ko‘radi. Bu falsafa predmetni dogmatik qilmaydi, balki uni kelib chiqishini tadqiq qiladi.

Feyerbaxni materialistik pozitsiyasi YA.F.Reyfnings “Falsafa ibtidosi” asariga Yozgan taqrizida yaqqolroq namoyon bo‘ladi (1841). Tabiat ruh asosini tashkil qiladi. Hammasini “Men” o‘z-o‘zini aniqlashdan keltirib chiqarib bo‘lmaydi. “Men” ob’ektiv dunyodan va o‘z tanasidan etmaydigan vositalarni oladi. Tabiat –falsafaning asosiy, haqiqiy ibtidosidir.

Feyerbaxga 1841 yilda Yozilgan “Xristianlikning mohiyati” asari katta obro‘ olib keldi. U asarda faylasuf Yangi falsafiy qarashlarni hammaga tushunarli tilda, chuqur asosli tarzda ochib berdi. Aynan “Xristianlikni mohiyati” orqali Feyerbax materializmi nemis falsafasiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Tabiat har qanday falsafadan tashqarida mavjud. Tabiat va insondan tashqarida hech narsa Yo‘q. YUksak mavjudotlar o‘z mohiyatimizni fantastik

qabul qilishimiz natijasidir. Shunday qilib, Feyerbax orqali nemis klassik falsafasi o‘z yakunini ko‘rdi.

Shundan keyin feyerbaxchilar paydo bo‘ldi. 1846 yilda Feyerbax “Din mohiyati” asarini Yozadi, lekin bu kitob Engels fikricha, eskicha ruhda Yozilgan edi, ya’ni dinni kelib chiqishi tarixiy Sharoit bilan bog‘lanmaydi.

1851 yilda Feyerbax “Din mohiyati haqida ma’ruzalar”ini Yozadi; bu asarda ilgari fikrlariga aniqliklar kiritadi, ayrim joylari to‘ldiriladi.

1846 yilda “Jonning o‘lmasligi haqida antropologiya nuqtai nazaridan” asarini Yozadi.

1869 yilda “Evdemonizm” asarini Yozadi – bu Feyerbax o‘limidan keyin nashr qilinadi (1874). Rafiqasining fabrikasi inqirozga yuz tutgandan so‘ng Feyerbax muhtojlikda yashaydi. Feyerbax 1872 yil 13 sentyabrda insultdan vafot etadi.

Feyerbaxning usuli Shunga olib keldiki, dinni tushunishning kalitini inson tabiatidan, uning ehtiyojidan, xohishidan, manfaatidan, intilishlaridan qidirmoq kerak. Antropologiya dinning yashirin mazmunidir, deydi, faylasuf. U ikki sababga ega: **birinchidan**, insonda kechayotgan qo‘rquv, quvonch, muhabbat, his-hayajon kabi kechinmalar orqali din yuzaga keladi. Bunday psixologik kechinmalarsiz insonda dinga ehtiyoj tug‘ilmasdi. **Ikkinchidan**, dinning ob’ekti, uning shakllari hayolot (fantaziya) orqali yuzaga keladi. Bunday gnoseologik mohiyatsiz, inson xudo haqida tasavvurga ega bo‘lmasdi. Antropologiya, faylasuf fikriga ko‘ra, shunday metodologik vositaki, uning yordamida biz dinning mohiyatini, xudoni to‘g‘ri tushuntira olamiz, tabiat haqida gapirar ekan, inson o‘zini kelib chiqishi va mavjudligi uchun tabiat o‘lida qarz dordir. Inson tabiatning bir bo‘lagi bo‘lganligi uchun tabiatda va tabiat tufayli yashashi mumkin. Tabiat — insonni boquvchi ona. Tabiatning inson uchun bu ahamiyati tufayli tabiat dinning birinchi predmeti va birinchi xudosi bo‘lgan. O‘zining antropologik tamoyili orqali din tufayli insoning buzilgan xohishi, manfaati, ehtiyojlari namoyon bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, uning sirlari antropologiyadadir. Bunda insonni tabiiy-moddiy mavjudot deb tushunadi. Tabiat birlamchi, ong esa

ikkilamchi. Feyerbaxning antropologik falsafasi mohiyati ana Shunday. Garchi Feyerbax o'zini naturfaylasuf deb atamagan bo'lsa-da, uning falsafasi tabiatni tushunishdagi naturfalsafadir. Feyerbax din va g'ayriilmiy falsafani teologiyanning ratsional Shakli deb, ularni qattiq tanqid ostiga oladi.

Feyerbax Gegelning dialektik metodini yetarli baholay olmaganligiga e'tiborni qaratishimiz lozim. Gegel falsafasini rad qilib, Feyerbax metafizik falsafaga qaytadi. Lekin XIX asr fanining Yuqori darajada bo'lganligi, Gegel dialektikasiining ta'siri natijasida uning falsafasi mexanistik xarakterga ega emas edi, unda olamni talqin qilishda ko'pgina dialektika elementlari bor edi.

Feyerbax tabiatning doimiy harakatda bo'lishi va turli-tumanligi, ularning bir-biriga o'tib turishi, tabiatdagi si-at o'zgarishlari, inkor qilish va ziddiyatlar haqida gapiradi. Falsafani teologiyadan ajratishning muhimligi, uning taraqqiy etishida tabiatshunoslikning ahamiyatini ta'kidlaydi, lekin materiya tushunchasining falsafiy kategoriya sifatidagi mazmunini tushunib etish darajasiga ko'tarila olmaydi. U dialektikaning tafakkur qilish metodi sifatidagi ahamiyatini tushuna olmadi.

Feyerbax olamni bilish mumkinligi haqida gapiradi. Bilishda sezgilarning ahamiyatini yuksak baholaydi, sensualizm g'oyalarini ilmiy talqin qiladi. Shuning bilan birga u bilishning sezgilardan iborat emasligini, unda mantiqiy tafakkur roli katta ekanligini ko'rsatib o'tadi. Feyerbax, tabiat kitobini sezgilarimiz bilan o'qiymiz, lekin uni sezgi organlarimiz Yordamida tushunmaymiz, deydi.

Feyerbax ob'ektiv reallikni bilish jarayonini e'tirof etishni izchillik bilan olib bordi. Haqiqiy borliq o'zining hissiy bilish qobiliyatiga bog'liq. Bu bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etuvchi bilish ob'ektlari — hissiy qabul qilish, sezish, his etish orqali amalga oshadi. Uning ta'kidlashicha, faqat Shunday tafakkur realdir, ob'ektivdirki, qachonki u his etish orqali amalga oshsa, faqat Shunday holatdagina tafakkur ob'ektiv haqiqatni ochib berishga qodir bo'la oladi. Hissiy qabul qilishdan voz kechishda, spekulativ falsafaning xatolikka Yo'l qo'yishining sababi, tafakkurda deydi, Feyerbax.

Tafakkurning hissiyotdan butunlay uzilishi ob'ektiv bilish predmetini Yo'qqa chiqaradi. Dunyo — deydi, u faqat ochiq boshga ochiq, hissiyot esa faqat boshning ta'shikchalari hisoblanadi. Hissiy bilishni u bilishning asosi va haqiqatning mezoni deb tajriba darajasiga ko'taradi. Shu Yo'sinda tafakkurning tajriba bilan doimo aloqadorlikda bo'lishini zaruriy hol deb biladi. Uning fikricha, hissiy bilish o'zining to'liq rivojida ratsional bilimga o'tadi. «Universal hissiyot bu idrokdir».

*Feyerbax Gegel ratsionalizmining mazmunini rad etdi-yu, Shuning bilan birga undagi ratsional mag'zini ko'ra olmadi, ya'ni uning ta'limotidagi dialektik metodni inkor etdi. Mavhumlik muammosini Feyerbax faqat adashish muammosi deb bildi. Feyerbax tafakkurni hissiyotdan ajratib qo'ydi.*

Tarixni tushunishda idealist bo'lib qoldi. Feyerbax amaliyotning bilish jarayonidagi ahamiyatini tushunib etmaydi. Dinga qarshi kurashni Feyerbax o'zining asosiy vazifasi deb hisoblagan. U xudo va dinning qandaydir sirli, g'ayritabiiy ekanligi haqidagi tasavvurlarni izchil tanqil qiladi. U dinning g'ayritabiiy mazmuni Yo'kligini ta'kidlaydi. Xudo tushunchasi bu inson mohiyatini begonalashtirib va fantastik buzib tushunishdir. Feyerbax insonning asl ijtimoiy mohiyatini ochib bera olmaganligi sababli, uning falsafasi doirasida inson tabiatning mavhum mavjudoti bo'lib qoldi va Shuning uchun ham u dinning mohiyatini tugal Yoritib bera olmadi, uni tanqid qilishda mavhumlikdan qutula olmadi. Uning dinida inson o'z xohishlarini ilohiylashtiradi, din real hayotda amalga oshirish mumkin bo'lmagan insoniy xohish va ehtiyojlarning fantastik hayoliy tarzda qondirilishidir, degan fikri ahamiyatga egadir. U diniy fantaziyalar bu ehtiyojlarni haqiqiy qondirish uchun to'sikdir; ularni faqat kishilarning yerdagi faoliyati asosida qondirish mumkin, deb to'g'ri aytadi. Lekin Feyerbax mazkur fikrlardan to'g'ri xulosalar keltirib chiqara olmaydi. U ongni isloh qilishga, insonning xudoga bo'lgan muhabbati o'rniga insonning insonga bo'lgan muhabbatini targ'ib qiluvchi Yangi dinni yaratishga da'vat qilish bilan chegaralanadi.

Feyerbax Yangi dinni, ya'ni muhabbat dinini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Bunday din jamiyatda axloq rolini o'ynashi mumkin, degan xulosaga keladi. An'anaviy diniy ishonch, e'tiqod endilikda insonlarning bir-birlariga bo'lgan haqiqiy muhabbatini amalga oshira olmaydi. Bu umid qiladigan muhabbat emas, chunki unda dinga ishonmovchilarga nisbatan nafrat ko'zi bilan qarashga undaydi va ularga qarshi xudoning lanatini Yog'diradi. Yangi din esa xudoga nisbatan mutaassiblik e'tiqodidan qutqarishi kerak, insonni insonga mehr-oqibatli qilib, faqat inson inson uchun xudoga aylanishi kerak, degan fikrni olg'a surdi. Faylasufning fikricha, muhabbat xudbinlik emas, balki uning o'zi insonni xudbinlikdan ozod etadi. Xudbinlik insonni barcha narsalarga nisbatan loqaydlikka olib boradi, deydi mutafakkir. Xudbinlik faqat uning Shaxsiy farovonligiga taalluqli narsa emas. Aksincha, muhabbat xudbinlikdan qutilishga va insonlarning ezgulikka intilishini yaratishga, insonni insonga nisbatan samimiy bo'lishga olib keladi. Sevgi amalda boshqa kishi uchun o'zidan kechish demakdir. Kimda-kim o'zini boshqalar uchun fido qilsa, u haqiqiy muhabbatning egasi bo'ladi, deydi faylasuf.

Muhabbat ong va tabiatning universal qonuniga aylanishiga faylasuf umidvor edi. Chunki nafrat — bu hamma narsani buzuvchi va parchalovchi quroldir. Muhabbat esa yaratilish qurolidir. U ijtimoiy hayotning muhim tamoyiliga aylanishi kerak. Muhabbat barcha ijtimoiy aloqalarga butunlay singib ketishi kerak, ya'ni bolalar va ota-onalar, erkak va ayol, ijtimoiy guruhlarni bog'lovchi muhim ijtimoiy vositaga aylanmog'i lozim. Muhabbat, ayniqsa, ayollarga nisbatan alohida ahamiyatga ega. Ayolni sevmagan inson, umuman, insonni sevmaydi, deydi, faylasuf. Faylasufning muhabbat haqidagi fikri o'zining soddadilligi va hayoliyligiga qaramay, o'zida insonparvarlik g'oyasini Shakllantirishga asos yaratadi. Unda «inson inson uchun» tamoyili barcha insoniyatning birligi va hamkorligi g'oyasini ifodalaydi. Faylasuf «Mening birdan-bir insonlarga ma'naviy talabim, hech kim hech qachon hech kimga Yovuzlik qilmasin», deyman, deb Yozali. Bunday dinni yaratishni u ijtimoiy adolatga erishishga tomon tashlangan

muhim qadam deb hisoblaydi. Bu bilan Feyerbax ijtimoiy muammolarni hal qilishning haqiqiy Yo‘lidan chetga chiqib ketadi.

Insonni moddiy tabiat mavjudoti deb tushunishga asoslangan holda Feyerbax barcha kishilarning baxtli bo‘lishi uchun teng huquqli tamoyilni ilgari suradi. Baxt-saodat, adolat insonning moddiy, hissiy ehtiyojlarini qondirilishida namoyon bo‘ladi. Sezgilar ovozi bu axlokdagi birinchi kategorik imperativdir, deb ta’kidlaydi Feyerbax. Hissiy lazzatlanish va emotsional qoniqishni e’tirof etmagan inson axloqiy fazilatlardan yiroqdir. Feyerbaxning axloqiy ta’limoti, mutafakkirning falsafiy qarashlarida muhim o‘rin egallaydi. Uning axloqiy ta’limoti evdemonistik (*inson hayotining maqsadi — baxt*) xarakterda bo‘lib, «Men» va «Sen» birligini, Shaxsiy va umumiy manfaatlarning muShtarakligini taqozo etadi. Faylasuf birinchi o‘ringa insonni antropologik ma’noda tushunishga da’vat etadi. Uning uchun eng muhimi o‘zaro individual munosabatdir. Baxtga intilishni faylasuf inson iroda kuchining harakatida ko‘radi. U esa o‘z navbatida ongning zaruriyati nuqtai-nazaridan ma’naviy burchni yuzaga keltiradi. Bu intilish amalda xudbiilik hissiyoti emas, chunki boshqalar bilan birlashmasdan turib, haqiqiy baxt-saodatga erishib bo‘lmaydi. Chunki inson o‘z baxtiga o‘zganing baxti orqali erishadi. Shuning uchun ham Feyerbax kishining kishiga muhabbati Men va Sen o‘rtasidagi Shunday munosabatki, unda kishilarning o‘rtasidagi teng huquqlikning qondirilishi va dialektik ifodalanishiga erishiladi, deb tasvirlayli. U o‘zining muhabbat haqidagi ta’limotiga mos ravishda Feyerbax aql egoizmi konsepsiyasini ilgari suradi. Unga muvofiq Shaxs manfaatlarining haqiqiy qondirilishiga Shunda erishishi mumkin-ki, qachonki uning xatti-harakatlari boshqalarning va hatto ko‘pchilikning o‘z baxtiga erishishga real imkoniyat yaratib bersa bunday pozitsiya axloqqa zid deb qaraladigan individualistik egoizmga qarshi turadi. Feyerbaxning mulohazalarida axloq-odob muammolariga ilmiy materialistik Yondashish kurtaklari mavjud. Axloqni talqin qilishda nemis faylasufi mavhum, tarixdan chetda turgan tabiiy insondan kelib chiqadi. Unda axloq muammolariga aniq ijtimoiy-tarixiy Yondashish sezilmaydi. U iqtisodiy munosabatlarning axloqiy me’Yorlari va tasavvurlarining Shakllanishidagi ahamiyatini inkor qiladi.

Feyerbaxning axloqiy qarashlari uning demokratik, mavhum gumanistik nuqtai-nazarini ifoda qiladi. Lekin ular ijtimoiy munosabatlarni, Shu jumladan axloqiy munosabatlarni ilmiy tushunishga haqiqiy Yo'lni ochib bera olmaydi. Faylasuf ijodida, ayniqsa, uchta mavzu yaxshi ishlab chiqilgan. **Birinchisi**, tabiat bamisoli ibtido va inson dunyosining ibtidosidir, degan fikr. **Ikkinchisi**, dinning ruhiy ildizi masalasiga doir mulohazalar. **Uchinchisi**, muhabbat mavzuini axloqiy tamoyil sifatida talqin etishdir. Bu mavzular bo'yicha mulohazalar qiziqarli va Shak-Shubhasiz, Yangicha Yondashishning namunasidir. Lekin faylasuf o'zi ilgari surgan muhim falsafiy muammolarni rivojlantira olmadi. Chunki u hayotining katta qismini qishloqda o'tkazganligi sababli faol ilmiy va ijtimoiy faoliyatdan chetda qolgan edi. Gegeldan farqli o'laroq u ijtimoiy hayot va jahon tarixi taraqqiyoti haqida fundamental ta'limot yarata olmadi.

Feyerbaxning jamiyatga va davlatga bo'lgan qarashlarida birYoqlamalikka Yo'l qo'yganligi sezilib turadi. Shak-shubhasiz, faylasufning jamiyat va davlat to'g'risidagi ta'limotining noizchil bo'lishining sababi tabiatga bo'lgan qarashlarini jamiyatga tatbiq eta olmaganligidadir. Uning antropologik falsafasi faqat tabiatning o'zini ichiga sig'dira olgan, xolos. Uning antropologizmi ijtimoiy ongning paydo bo'lishi va o'zgarishi sabablarini, rivojlanishini jamiyatdan emas, aksincha, tabiatdan izladi hamda ijtimoiy borliq tabiatga nisbatan ikkilamchi, degan xulosaga keladi. Lekin Shuni ta'kidlash lozimki, u jamiyatni g'ayritabiiy tushunishdan yiroq bo'lgan. U din insonlarning hayotiga va g'oyasiga zid, siyosiy erkiga qarshi narsa, deb bildi. Jamiyat va jamiyat a'zolarini xudo yaratgan emas, aksincha, xudoni, dinni insonlarning o'zlari yaratgan, deydi. Din inson mohiyatini konkret insondan ajratib, ilohiylashtirgan, degan fikrga keladi faylasuf.

Tabiatdan tashqarida hech qanday g'ayritabiiy kuchlar Yo'q. Xudo va din kishilarning hayoliy mahsulidir. Biroq Shuni aytmoq lozimki, Feyerbax umrining oxirigacha izchil dahriy bo'lib qolgan emas, chunki u dinning moddiy sababi va sinfiy ildizini ochib bera olmadi. Uning dinga bo'lgan noizchilligini yana Shunla ko'rish mumkinki, u dinni mutlaqo tugatish tarafdori bo'lmagan, balki mavjud ananaviy din o'rniga Yangi dunyoviy, muhabbat dinini, ya'ni insonlarni bir-biriga

og'a-inidek, opa-singildek muhabbatli bo'lib yashashga da'vat etuvchi din haqida fikr-mulohaza yuritgan. Faylasuf hayol qilayotgan dinda xudo emas, aksincha, inson hukmronlik rolini o'ynamog'i lozim. Yangi din insonlar o'rtasida axloq-olobni mustahkamlashga qaratilishi falsafiy ta'limot bo'lmog'i zarur. Taajjubli joyi Shundaki, Feyerbax xudoni inkor etgan holda, dinni saqlab qolishga harakat qildi. Dinni e'tirof etish, bu demak, xudoni e'tirof etish bilan barobardir.

Faylasufning diniy va ijtimoiy qarashlari uning axloqiy qarashlari bilan chambarchas bog'likdir. Faylasufning tarix falsafasi axloq-odob, jamiyat haqidagi tasavvurlari bilan chambarchas bog'liqdir. Garchan faylasuf o'z axloqiy ta'limotini inson bilan chambarchas bog'lagan bo'lsa ham, lekin u tasavvur qilgan inson konkret inson bo'lmay, aksincha jamiyatdan, ijtimoiy hayotdan uzilgan, yana mavhumlashgan, o'zini o'zi tanimaydigan inson sifatida gavdalanadi. Faylasufning fikricha, kishilarning baxt-saodatga intilishi axloq ilmining asosini tashkil etadi. Axloqning asosiy vazifasi kishilar o'rtasida, oilada, ayol bilan erkak o'rtasidagi jinsiy aloqalar asosida yaqqol ifoda etiladigan, baxtga intilishlarini o'zaro bir-biri bilan bog'lashdan, murosaga keltirishdan iboratdir. Erkak va ayol o'rtasidagi jinsiy, axloqiy aloqalar barcha munosabatlar asosini tashkil etadi. Faylasuf axloq-odob munosabatlarini jamiyatdagi konkret iqtisodiy va ijtimoiy qatlamlari o'rtasidagi munosabatlarda ko'rmay, mavhum bir ma'noda tushunga n. Faylasufning asl maqsadi, niyati, axloq vositasi bilan jamiyatdagi barcha mavjud sinf va ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni kelishtirishdan, bartaraf etishdan iborat edi. Uning ta'limoticha, jamiyat negizida din va diniy axloqiy munosabatlar Yotadi.

Feyerbaxning ta'kidlashicha, jamiyat tarixi dinlarning o'zaro almashinuvi tarixidan iboratdir. Faylasufning asosiy kamchiligi va xatosi ijtimoiy hayotdan uzilib, chekka bir qishloqda yashab, jamiyatda yuz berayotgan inqilobiy o'zgarishlar, fanda sodir bo'lgan yirik kashfiyotlar (energiyaning saklanishi va o'zgarish qonuni, Darvinning evolyusion nazariyasi, hujayraning kashf etilishi) dan bexabar qolganligi sabablidir. Faylasuf o'z faoliyati jarayonida naturfalsafa bilan cheklanib, ijtimoiy hayotdan, ijtimoiy fanlar taraqqiyotidan ajralib qolgan

edi. Uning ijtimoiy hayotni talqin etishdagi ojizligining sabablaridan biri bu Angliyada yuz bergan siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar, Fransiyadagi sotsial utopistlarning nazariyalari bilan yaqindan tanish bo'lmaganligidandir.

Jamiyat tarixi XIX asr nemis falsafasida inson faoliyatining maydoniga aylangan edi. Shuningdek, yaxlit va qonuniy jarayon davrlar holatining va kishilar o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishiga olib keldi. XIX asr nemis falsafasi o'z davriga nisbatan dunyoni chuqur va keng tushuntira oldi. Keyinchalik nemis faylasuflari boshlab bergan ishni boshqa mutafakkirlar davom ettirdilar.

XIX asr nemis falsafasi falsafiy fikrlarning rivojlanishida muhim rol o'ynadi, deyishga haqlimiz. **Birinchidan**, unda dialektika taraqqiyot nazariyasi va falsafiy tafakkur uslubi sifatida ishlab chiqildi. **Ikkinchidan**, ruhiy jarayonlar turli jamiyat hayotida va umuman tarixiy jarayonda faol omil ekanligi falsafiy konsepsiya darajasida shakllandi. **Uchinchidan**, insonning bilish jarayonida, ijtimoiy sub'ekt ekanligi haqida Yangi ta'limot yuzaga keldi. Davrlar holati, insonlar o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishi bir butun va qonuniy jarayon sifatida namoyon bo'ldi. Nemis falsafasi o'z davriga nisbatan olamni chuqur va har tomonlama tushuntira oldi. Feyerbax qarashlari nemis klassik falsafasida naturfalsafiy g'oyalarni tarqatishga, falsafiy fikrni Yangi sifat bosqichiga ko'tarishga xizmat qildi.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Nima uchun nemis klassik falsafasi deyiladi?
2. Falsafa tarixida nemis klassik falsafasining ahamiyati qanday?
3. Aprior, aposterior tushunchalariga ta'rif bering.
4. Gegel uslubi bilan tizimi o'rtasida qanday ziddiyat bor?
5. Lyudvig Feyerbax nima uchun Gegel falsafasini tanqid qildi?

### **Adabiyotlar:**

1. Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р., Қобулниёзова Г., Рузматова Г. Янги ва энг янги давр Ғарбий Европа фалсафаси.. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Шарқ, 2002.
2. Пўлатова Д., Рузматова Г. Ғарб фалсафаси. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Premier-print, 2011.
3. Скирбекк Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2002.